

Kenjayev Maqsud Negmat o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Magistratura bosqichi magistranti
kenjayevmaqsud06@gmail.com
+998979621999

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida dunyoviylik tamoyilining huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ta’limda betaraflik, ilmiy yondashuv, vijdon erkinligi va inklyuzivlik kabi jihatlar yoritilib, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Dunyoqarash, dunyoviy ta’lim, Yangi O‘zbekiston, Konstitutsiya, vijdon erkinligi, ta’lim tizimi, huquqiy asos, STEM, akademik erkinlik, ta’limda betaraflik, ta’limda islohotlar, xalqaro tajriba, raqamli savodxonlik, inkluziv ta’lim, demokratik qadriyatlar.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy asoslardan biri sifatida dunyoviy davlat konsepsiysi ajralmas o‘rin tutadi. Bu prinsip Konstitutsianing birinchi muddasida O‘zbekiston Respublikasini suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat sifatida belgilash orqali mustahkamlangan. Dunyoviylik tamoyilining eng muhim ko‘rinishlaridan biri bu — ta’lim tizimida din va davlatning ajratilganligi, ya’ni ilm-fanga asoslangan betaraf, ijtimoiy adolatga yo‘naltirilgan o‘quv muhitining yaratilishidir.

Xo‘sish, ta’lim o‘zi nima va u qanday bo‘lishi kerak degan savolni hozir ko‘rib chiqamiz.

Ta’lim - bu davlat tomonidan qatiy o‘rnatilgan meyorlar asosida tabiat va jamiyat unsurlarini o‘rganish bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida, aniq maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonidir. Ta’lim so‘zining lug‘aviy ma’nosи arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, yaralgan, tuzilgan degan ma’noni anglatadi.

Rossiyalik olim V.I.Shkatullaning fikricha “ta’lim inson turmush tarzining ajralmas qismidir. Unga nisbatan nafaqat moddiy va ma’naviy extiyojlarni qoplash vositasi, balki sog‘lom fikrlash hamda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish vositasi sifatida ham qaraladi. Ta’lim har qanday jamiyatning rivojlanishiga muhim asos bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek madaniyat ta’limsiz mavjud bo‘lmaydi va u jamiyatdaadolatsizlik va tengsizlikni bartaraf etuvchi vositalardan biridir”⁷.

Professor A. A. Azizzxo‘jayevning takidlashicha, "jahon taraqqiyoti tajribasi jamiyatni ta’limsiz, ilm-fansiz rivojlantirib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Dunyoda hech

⁷ Шкатулла В.И Образовательное право: Учебник, - М.:Норма-инфра, 2001.- С.203.

bir davlat savodsizlik va xurofot tufayli yaxshilik ko‘rmagan. Insoniyat sivilizatsiyasi hamma vaqt ong va tafakkur taraqqiyoti, uning beqiyos kuch-qudrati, yaratuvchilik dahosi bilan tarixda buyuk siljishlar qilgan. Turli davrlarda, turli mintaqalarda turli holatlarda yuz bergen bunday xodisalar inson va jamnyat taraqqiyotini kutilmagan cho‘qqlarga olib chiqqan”⁸.

Konstitutsiyaning 50-moddasida ta‘lim olish har bir fuqaroning huquqi sifatida e’tirof etilib, umumiy o‘rta ta‘limning majburiyligi, boshlang‘ich professional ta‘limning bepul asosda ta’milanishi davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilanadi⁹. Bu yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir shaxsga diniy e’tiqodidan qat’i nazar, ilm-fan asosida, teng huquqli va erkin ta‘lim olish imkonini beradi.

Dunyoviylik tamoyilining huquqiy bazasi nafaqat Konstitutsiyaning 50-moddasida, balki bir qator boshqa moddalarida ham o‘z ifodasini topgan. 14-modda diniy tashkilotlar va davlatning bir-biridan ajratilganligini belgilaydi, bu ta‘lim sohasida ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 31-modda esa har bir fuqaroning vijdon erkinligi va diniy e’tiqod huquqini kafolatlaydi, bu ta‘lim jarayonida hech kimga o‘zining e’tiqodini majburlab o‘rgatmaslik tamoyilini nazarda tutadi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida ta‘limning dunyoviy xarakteri, ilmiy asosga ega bo‘lishi va har qanday siyosiy, diniy ta’sirdan xoli bo‘lishi aniq belgilangan¹⁰. Bu qoidalar maktabgacha ta‘limdan tortib oliy ta‘limgacha barcha bosqichlarda qo‘llaniladi va ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Ta‘lim tizimining bunday betaraflikka asoslanishi milliy qadriyatlar, turli dinlarga mansub aholining tinch-totuv yashashi va demokratik jamiyat qurilishi uchun muhim zamin yaratadi. Barcha fanlar, jumladan tarix, biologiya, huquqshunoslik, falsafa kabi sohalarda ta‘lim diniy emas, balki empirik dalillar va ilmiy manbalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijtimoiy tolerantlik va ijtimoiy mas’uliyat hissi shakllanadi.

Bu yondashuv nafaqat bilim berish, balki shaxsiyat shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyoviy ta‘lim tizimida o‘qigan yoshlar keyinchalik hayotda yanada moslashuvchan, ochiq fikrli va ijodiy yechimlar topa oladigan shaxslar bo‘lib shakllanadi.

Shu vaziyatda davlatimiz rahbarining “Takror va takror aytaman: Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi!” degan nutqlarini eslashimiz maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustaqil ta‘lim muassasalarini tashkil etish, ta‘limning erkin shakllarda (kunduzgi, kechki, masofaviy) olib borilishi, inklyuziv ta‘lim shakllarini rivojlantirish kabi huquqiy mexanizmlar o‘z aksini topgan.

⁸ Azizzoxjayev L. L. Davlatchilik va ma’naviyat. - Toshkent: Sharq, 1997. -B. 29.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.

¹⁰ “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun

Ta'lim jarayonlari nafaqat davlat maktablarida, balki nodavlat ta'lim muassasalarida ham erkinlik tamoyillari asosida tashkil etilishi ta'minlanmoqda. Bu mexanizmlar ta'lim tizimida raqobat muhitini yaratadi va sifat yaxshilanishiga olib keladi. Nodavlat ta'lim muassasalari innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yangi o'qitish metodikalarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa butun ta'lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur dunyoviylik modelining muvaffaqiyatlari qo'llanilishi uchun xalqaro tajriba ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi maktablar avtonomiysi, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi, va eng asosiysi, barcha qatlam vakillari uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu davlatda o'quv dasturlari markaziy idoralar tomonidan qat'iy belgilanmaydi, aksincha o'qituvchilar metodika va mazmunni mustaqil tanlaydi. Bu akademik erkinlik ham ta'lim betarafligining ko'rinishidir.

Finlandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarga berilgan metodologik erkinlik va ularning yuqori malakasi ta'lim sifatining oshishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu model O'zbekiston uchun o'qituvchilar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish va ularning kasbiy erkinligini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Germaniyada esa maktablar tarmoqli tizim asosida tashkil etilgan bo'lib, har bir bola boshlang'ich maktabdan so'ng o'z iqtidoriga mos yo'nalishni tanlaydi. Ta'lim bepul bo'lib, gimnaziya, real maktab, asosiy maktab, kasbiy kollej kabi tizimlar orqali shaxsnинг rivojlanishiga xizmat qiladi. Davlat maktablarida diniy targ'ibotga yo'l qo'yilmaydi va fan asosida ta'lim beriladi. Germaniya tajribasi ko'p yo'nalishli ta'lim tizimining afzalliklarini namoyon etadi. Bu model O'zbekiston uchun kasbiy yo'naltirish tizimini kuchaytirish va har bir o'quvchining individual qobiliyatlariga mos ta'lim yo'lini tanlash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha muhim saboqlar beradi.

Singapur esa STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo'nalishlariga katta e'tibor qaratgan bo'lib, bu yondashuv o'quvchilarning tanqidiy tafakkur va zamonaviy kasblarga mos tayyorlarligini oshiradi. Bu yerda ingliz tili asosiy o'quv tili sifatida tan olingan, ammo milliy tillar ham rivojlantiriladi. Raqamli savodxonlik va texnologiyalarning o'quv jarayoniga kiritilishi bilan Singapur yuqori natijalarga erishgan. Singapur modeli kichik davlatlar uchun ham yuqori ta'lim standartlariga erishish mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu tajriba STEM yo'nalishlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga chuqurroq integratsiya qilish bo'yicha muhim yo'l-yo'riq beradi.

Fransiyada laïcité (dunyoviylik) printsipi asosida ta'limda diniy alomatlarning taqiqlanishi, fan, sport, tarbiya va jamiyat hayotini uyg'unlashtirgan ta'lim modeli mavjud. Bosh inspeksiya orqali davlat siyosati ta'lim muassasalarida izchil amalga oshiriladi va bu tizim bolalarni jamiyatga tayyorlaydi. Fransiya tajribasi dunyoviylik tamoyilining qat'iy qo'llanilishi va uning ijtimoiy integratsiyaga ta'sirini ko'rsatadi. Bu

model O‘zbekiston uchun turli madaniy va diniy kelib chiqishga ega fuqarolarni birlashtiruvchi umumiy milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kash etadi.

AQShda esa "Hisobot kartasi" va "Sevimli o‘yinchoq" metodikasi yordamida o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga alohida urg‘u beriladi. Biroq, ta’limda haddan tashqari erkinlik nazoratning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, shaxs erkinligini qadrlash va tanqidiy fikrlashga e’tibor berish ushbu tizimning ijobiy jihatidir. AQSh tajribasi ta’limda individual yondashuvning afzallikkleri va kamchiliklarini ko‘rsatadi. O‘zbekiston uchun bu tajriba o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha foydali saboqlar beradi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar xalqaro tajribani o‘zlashtirgan holda milliy xususiyatlarga moslashtirilgan. Oliy ta’lim muassasalarida akademik erkinlik, raqamlı platformalar, ilmiy markazlar, xususiy sarmoyalarni jalg qilish, ta’lim sifati bo‘yicha akkreditatsiya tizimi joriy qilinmoqda. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish choralar ko‘rilmoxda. Zamonaviy dunyoda raqamlı savodxonlik nafaqat texnik ko‘nikma, balki hayotiy zarurat hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamlı texnologiyalarning joriy etilishi, onlayn ta’lim platformalarining rivojlantirilishi va o‘qituvchilarning raqamlı kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi jarayonida PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga qatnashish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, ikki tomonlama diplom dasturlari kabi loyihibar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 29-moddasi ta’limning maqsadlarini belgilaydi: bolaning shaxsiyati, iqtidori va aqliy hamda jismoniy qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirish. UNESCO ning ta’lim sohasidagi tavsiyalari ham ta’limda tolerantlik, o‘zaro hurmat va tinchlik ruhida tarbiyalashni ta’kidlaydi. Bundan tashqari Evropa Kengashining ta’lim sohasidagi me’yorlari demokratik fuqarolik tarbiyasi, insoniy qadriyatlarni shakllantirishda dunyoviy ta’limning rolini alohida ta’kidlaydi. Bu standartlar O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro me’yolarga moslashtirishda muhim yo‘l-yo‘riq vazifasini bajaradi.

Dunyoviy ta’lim ijtimoiy integratsiya jarayonlarini kuchaytiradi. Turli diniy va madaniy kelib chiqishga ega o‘quvchilar birgalikda ta’lim olish orqali o‘zaro tushunish va hurmatni o‘rganadilar. Bu jarayon milliy birlk va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyoviy ta’lim olgan yoshlar keyinchalik ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etadilar, turli fikrdagi odamlar bilan konstruktiv muloqot qila oladilar va demokratik jarayonlarda mas’uliyat bilan qatnashadilar.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi yangi qiyinchiliklarga duch kelmoqda: axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, qadriyatlar tizimidagi o’zgarishlar. Bu sharoitda dunyoviy ta’lim tizimi ham doimiy o’zgarish va takomillashuvni talab etadi. Raqamli savodxonlik, kritik fikrlash ko‘nikmalari, global masalalarni tushunish — bu barcha jihatlar zamonaviy dunyoviy ta’limning ajralmas qismlari hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida STEM yo‘nalishlari, ingliz tili, raqamli texnologiyalarga katta e’tibor qaratilishi ham aynan shu talablardan kelib chiqadi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, dunyoviylik tamoyiliga asoslangan ta’lim tizimi ilmiy yondashuvga, ijtimoiy adolatga va shaxs erkinligiga asoslanadi. U turli e’tiqoddagi fuqarolar o’rtasida betaraf, barqaror va inklyuziv muhit yaratadi. Yangi O‘zbekiston davrida bu tamoyilning huquqiy asoslari takomillashmoqda, ta’lim tizimi esa xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Dunyoviylik tamoyiliga asoslangan ta’lim tizimi zamonaviy O‘zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. U nafaqat konstitutsiyaviy tamoyilni amalga oshirish, balki ijtimoiy barqarorlik, demokratik rivojlanish va xalqaro hamjamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvning asosiy vositasidir. Bu tizimning yanada takomillashtirilishi va rivojlantirilishi davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim qismidir. Bu esa o‘z navbatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, demokratik qadriyatlarining qaror topishi va ijtimoiy barqarorlikning ta’milanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda bu tizimning samaradorligini oshirish uchun doimiy monitoring, baholash va xalqaro tajribani o‘rganish jarayonlarini davom ettirish zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz». 1-jild. «O‘zbekiston» nashriyoti, Toshkent – 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minalash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini